

**FRANSIYA MUZIYLARIDA RESTAVRATSIYA JARAYONLARI VA TARIXI
(LUVR MUZEYI MISOLIDA) (LUVR MUZEYI MISOLIDA)**

Qayumov Suxrob Sobirovich
*Kamoliddin Behzod nomidagi
milliy rassomlik va dizayn institute
Muzeyshunoslik kafedrasi o'qituvchisi*
Norboyev Salohiddin Bahodir o'g'li
*Kamoliddin Behzod nomidagi
milliy rassomlik va dizayn institute
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Fransiya muzeylarining restavratsiyada tutgan urni va o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

Muzeylar orasida uzining kuxna tarixi, eksponatlar sonining kupligixamda davriy va mavzu jixatdan rang-barangligi xamda eng asosiysi mashxurligi bilan Luvr muzeyi ajralib turadi.

Kalit so'zlar: *San'at, davr, portret, janr, dasgohli rangtasvir, plastic, rang-baranglik, restavratsiya, luvr, ustaxonalar*

Fransiya nafaqat Evropaning, balki jaxonning taraqqiy etgan davlatlaridan biri bo'lishi bilan birga, kuhna va zamonaviy sa'nat, madaniyat va ma'rifat markazi hisoblanadi. Shuningdek, mazkur mamlakat tarixiy, madaniy va memoriy obidalarga ham boy. Fransiyaning tom manodagi muzeylar mamlakati deb atash mumkin. Sababi, bu erda 1200 dan ortik muzeylar bulib, ulardan 300 tasi uning poytaxti Parijda joylashgan.

Muzeylar orasida uzining kuxna tarixi, eksponatlar sonining kupligi hamda davriy va mavzu jixatdan rang-barangligi hamda eng asosiysi mashxurligi bilan Luvr muzeyi ajralib turadi.

Luvr muzeyi Parijning markazida, Sena daryosi ung kirg'og'ida, kuhna qirolik saroyi binosida joylashgan. XVII asr oxirida Lyudovik XIV uz yangi qirolik karorgohini Versalga kuchiradi va XVIII asr boshlarida eski qirolik binosini muzeyga aylantirish takliflari tusha boshaydi. Lekin, muzeyga 1792 yilda asos solinadi. Luvr - Fransiyaning Kapetinglar sulolasi davridan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy va badiiy ashyolarni yig'ish buyicha boy tarixga ega bo'lgan eng kuxna muzeylardan biri hamdir. Muzeyda taxminan 620 000 ta eksponat bulib, ulardan fakat 36 000 tasi kurgazmaga kuyilgan.

Luvr muzeyi uzining domiy ekspozitsiyalaridan tashkari kuplab vaqtinchalik kurgazmalar tashkil qilishi bilan ham nom qozongan. Muzeyda odatda yil davomida turli mavzularda va turli davlatlardan unga yaqin kurgazmalar tashkil qilinadi. Kurgazmalarga eksponatlarni tanlashdan boshlab, ularni preventiv konservatsiya

qilish, qadoklash, ekspozitsiyaga moslash va urnatishgacha bo'lgan jami jarayon muzeyning mutaxassislari tomonidan shu erning uzida amalga oshiriladi. Buning uchun muzeyda mahus ustaxonalar mavjud. Ularning soni 15 ga yaqin bo'lib, turli maqsad va vazifalar uchun muljallangan. Masalan, bir ustaxona kurgazma zallarini urnatma vitrinalar bilan taminlashga muljallangan bo'lsa, boshqasi podium va tagliklar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Ularning ayrimlari yog'och eksponatlar bilan ishlash, kartina rom (ramka)larini tamirlash, metalga ishlov berish va har bir eksponatning hajmi va shaklidan kelib chiqib metal ushlagich va urnatkichlar yasash uchun muljallangan. SHuningdek, ular ichida og'ir ob'ektlar, tosh va mramordan ishlangan arxitektura bezaklari va xaykallar, metaldan ishlangan san'at asarlari, yog'och va boshqa xom-ashyolar uchun alohida ustaxonalar ajratilgan. Bu erda miniyuk mashinalar, kutarma kranlar, shtabeler elektr yuk kutargichlar, kutarma ish stollari va boshqa kerakli texnikalarni kurish mumkin. SHuningdek, har bir ustaxona eng sunggi zamonaviy asbob-uskunalar, maxus jixozlar va turfa hil qurollar bilan taminlangan. Ustaxonalar ichida kurgazma zallarini yaratishda, podium va podstavkalarining tekstura va fakturasi bilan shug'ullanadigani diqqatni tortadi. Har bir ustaxonada 10-15 odamdan iborat uz ishining mohir va tajribali mutaxassislari faoliyat olib boradi. Asosiysi ular bir jamoa bulib, hamjihatlikda ishlashi va har bir eksponatni o'rnatishga masuliyat bilan yondashishi tahsinga loyik.

Yuqorida ta'kidlangandek, eksponatlarning asosiy qismi fondlarda saqlanadi. Kuplab eksponatlar xavsizlik nuqtai-nazaridan tashrif buyuruvchilarga ketma-ket uch oydan kuproq vaqt kursatilmashligi uchun saqlov xonalarida saqlanadi. Bundan kelib chikadiki, muzey ashyolarining asosiy qismi fondlarda saklanishi va ularni saklanish xolatini barkaror ushlab turish muhim vazifa xisoblanadi. Shuningdek, o'larni yangi kurgazmalarga kuyishdan oldin preventiv konservatsiya qilish ham lozim bo'ladi. Bundan kurinadiki, muzey faoliyatida restavratsiyaning urni juda muhim. Bu borada ham Luvrga havas qilsa arziydi. Luvr konservatsiya markazi (frans. Centre de conservation du Louvre à Liévin - RSHP) 2019 yilda Fransiyaning shimolidagi Lyoven shaxrida, Luvr-Lans yaqinida ochilgan. Markazing asosiy maqsadi - Luvr muzeyiga saqlash uchun berilgan fransuz milliy kolleksiyasini suv bosishidan himoya qilish chunki, Sena daryosi buyida joylashgan Luvr muzeyi, ayniqsa, suv toshqini xavfi ostida, chunki uning doimiy kurgazma galereyalari va omborxonalari suv toshkini xududlarida joylashgan. Luvrda toshqinning oldini olish rejasi (PPCI) mavjud, ammo suv toshqini sodir bo'lgan taqdirda, barcha san'at asarlarini, ayniksa 10000 m ga yaqin er osti omborlaridagi ashyolarni olib chikish va himoya qilish uchun etarli vaqt bo'lmaydi. Shu sababli, muzey kolleksiyalari xavfsizligini kafolatlaydigan doimiy echim topish uchun boshqa joydan maskan izlashga majbur bo'lgan.

Shunday qilib, kuchish saklanayotgan asarlarni bir joyda tuplash imkoniyatini berdi, chunki o'lar Luvr saroyining ichida va tashkarisidagi oltmishdan ortiq turli joylarga tarqalib ketgan edi. Luvr konservatsiya markazi esa barcha qimmatbaho

kolleksiyalarni xavfsiz saqlashi mumkin. Shuningdek, saqlash sharoitlarini yaxshilash va tadqiq etishni ham nazarda tutadi. Muzej rejasiga kura 2024 yilga kelib markazda 250 mingga yakin san'at asarlari bo'ladi, bu esa uni Evropadagi eng yirik ta'lim va tadqiqot markazlaridan biriga aylantiradi. Luvr-Lans va Luv konservatsiya markazi muxofaza qilish markazi birgalikda markazlashmagan madaniyat maskanini tashkil kiladi.

Luvr konservatsiya markazi san'at asarlarini saqlash va qayta ishlashga muljallangan. Shuningdek, markaz ilmiy tadqiqot va ta'limga bag'ishlangan bo'lib, turli ashyolar uchun alohida xonalar (kadoqlash va ochish, fotostudiya, konservatsiya ustaxonalari va maslahat kabinetlari) mavjud. Bu er nafaqat asarlarni saqlash joyi, balki muzej mutaxassislari (masalan, muzej xodimlari, restavratorlar, fotosuratchilar), tadqiqotchilar va olimlar bilan san'at asarlari hususida maslaxatlashish, tadqiqot o'tkazish yoki urganishda qatnashish uchun muntazam ravishda uchrashadigan ish joyidir.

Konservatsiya markazi Luvr muzejining ulkan mashxurligiga ham hissa qushadi. Bundan tashkari, xalkaro huquq me'yorlariga muvofiq, Markaz qurolli tuknashuvda ishtirok etayotgan mamlakatlarning san'at asarlarini ularga egalik qiluvchi davlatlarning iltimosiga binoan, kelishmovchilik tugaganidan keyin kaytarilgunga qadar joylashtirishi mumkin.

Fransiyadagi mingdan ortiq muzeylardagi bir necha million muzej ashyolarini saqlash va ularni holatini barqaror ushlab turish tabiiyki kuplab restavratorlarni talab qiladi. Shu maqsadda mamlakatda bu sohaga ham etarlicha e'tibor qaratilgan. Xususan, Madaniyat vazirligiga qarashli Fransiya milliy meros instituti (frans. Institut national du patrimoine) mamlakatdagi kuratorlar va restavratorlarni tayorlash uchun masul bo'lgan yagona akademiya hisoblanadi. U ikkita bo'limdan iborat bo'lib, biri tarixiy joy hisoblanmish Milliy san'at tarixi instituti (INHA)ning Kolbert galereyasida va Obervils (Aubervilliers)da joylashgan. Birinchisi mamuriyat va kuratorlar tayyorlash uchun muljallangan busa, ikkinchisi restavratsiya soxasida malakali kadrlar tayyorlash uchun muljallangan. Mazkur kampus IX-asrda kurilgan va boshlangich va uzluksiz talim dasturlari uchun tulik tiklangan sobik gugurt fabrikasi urnida joylashgan.

Restavratorlar bulimining vazifasi tanlov asosida kirish imtixonlari orkali nomzodlarni tanlab olish va jamoat kolleksiyalari bilan ishlashga kodir va vakolatli restavratorarni tayyorlashdan iborat.

Nomzodlarning soxalari turlicha bulib, ular orasida san'atshunoslar, olimlar, xunarmandlar, rassomlar bor. Talim 5 yil davom etadi va Fransiya sharoitida restavratorlar kamdan-kam hollarda davlat xizmatchilari bo'ladi.

Ta'lim Fransiyanig uzida va xorijda 9 oy nazariy va amaliy kurslar hamda stajirovkalarga bulingan. Besh yil davomida bazi amaliyotlar fakat yakka talabalar uchun, bazilari esa dala maktablarida yoki soxadagi boshka jamoaviy tadbirlarda ishtirok etadi. Ushbu imkoniyatlar, shuningdek, jamoat kolleksiyalaridan xakikiy san'at

asarlarini saqlashga Fransiya Madaniyat vazirligining muzeylar yoki boshka vazirliklar kabi muassasalari bilan kelishuvlar orkali ruxat etiladi. Kafedraga xar yili 100 ga yaqin talaba kabul kilinadi. Bevosita akademiyaning laboratoriyasiga kelsak, uning tarkibiga muxandis-tadkikotchi, organik moddalarni gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriyasi yordamida taxlil kilishga ixtisoslashgan laboratoriya mudiri, muxandis-konstruktor, zamonaviy gibrid moddani taxlil kilish uchun masul laboratoriya boSHpiRining yordamchisi, infrakizil spektroskopiya, muxandis yordamchisi va laboratoriya boshli ining yordamchisi, mikrorentgen floresansi va noorganik moddalarni taxlil kilish uchun masul xodimlar kiradi. Laboratoriya faoliyati va tajribasi restavratorlar uchun dastlabki ukuv dasturining bir kismi bulib, Obervils shaxrida joylashgan. Muassasa bir kancha mikroanalitik usullar (stereomikroskopiya va optik mikroskopiya, mikrorentgen-oluoressensiya, gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriya, ichki aks ettiruvchi infrakizil spektroskopiya: tashki kuzgu skanerlash elektron mikroskopi) kabi zamonaviy jixozlar bilan taminlangan.

«Fransuz muzeylarini tadkik kilish va restavratsiya markazi» (C2RMF- Centre de Recherche et de Restauration des Musées de France) Fransiyada muzey kolleksiyalarini tadkik kilish va restavratsiya qilish sohasidagi davlat muassasasi xisoblanadi. Markaz uchta manzilda joylashgan bulib, ularning ikkisi Parijdagi Luvr qasri binosi (Pavillon de Flore Palais du Louvre Porte Jaujard Ba Site du Carrousel)da va biri Versaldagi Kichik Kirollik saroyi binosi (Petite écurie du roi)da joylashgan. Markaz 1998 yilda Fransiya muzeylari laboratoriyasi va Davlat muzeylar xizmatining restavratsiya ustaxonalari birlashganidan keyin tashkil etilgan. Tarixan olib karaganda kirol kolleksiyalarini tiklash rassomlarga ishonib topshirilgan edi. XX-asr boshidan boshlab san'at ashyolarini restavratsiya kilishga yondashuv yanada ilmiy tus oldi. 1895 yildagi rentgen nurlari kashf etilganidan kup utmay, Luvr san'at asarlarini rentgenografiya kilish uchun birinchi urinishlarni amalga oshirdi. 1932 yilda muzeyda Rangtasvir bulimi koshida fizika laboratoriyasi tashkil etildi. 1968 yilda laboratoriya Fransiya muzeylari ilmiy-tadkikot laboratoriyasiga aylandi (Laboratoire de recherche des Musées de France). Markazda moddiy madaniy merosni urganish saqlashga ixtisoslashgan «Techne» jurnali yiliga ikki marta nashr etiladi.

Markazning uziga xosligi shundaki, bu erda 150 nafardan iborat kuratorlar, arxeologlar fiziklar, kimyogarlar, fotograflar, rentgenologlar, restavratorlar, xujjatshunoslar, muxandislar, texniklar, mamurlar, kabulxona va nazoratchi agentlar, shuningdek, doktorantlar va tadkikotchilar jamlangan. Xar yili 200 ga yaqin yakka tartibdagi restavratorlar doimiy ravishda Markazda ishlash uchun kelishadi.

Markazda Bosh kotibiyatdan tashkari turta bulim mavjud: ilmiy-tadkikot, Restavratsiya, Profilaktik konservatsiya va arxivla xamda Zamonaviy axborot texnologiyalari. Xar bir bulimning uzi gurux yoki sektorlardan iborat. Jumladan, «Tadkikot» bulimi beshta seksiyaga ega: buyumlar restavratsiyasi (metall,SHisha, keramika, tosh); rangtasvir (dastgoxli rasm, polixrom va grafika) asarlar; davni aniklash

(uglerod 14, termolyuminessensiya; AGLAE+ (skanerlovchi elektron mikroskop rentgenofloressensiya, diffraksiya xamda vizuallashtirish: fotosurat, rentgen, tashki kurinish, kompyuter tomografiyasi. Restavratsiya bulimi esa oltita sektorni z ichiga oladi: arxeologiya va etnografiya, amaliy sanat, zamonaviy san'at, rangtasvir, xaykaltaroshlik va grafika.

Profilaktik konservatsiya bulimi z nabatida ikkita sektorni ichiga oladi: preventiv konservatsiya va ekspertiza xamda ish boshkaruvi. Arxiv va Zamonaviy axborot texnologiyalari bulimi xam ikki yunalishga bulingan: arxivlar, kutubxonalar xujjatlari xamda zamonaviy axborot texnologiyalari. Markaz faoliyati bir-birini tuldiruvchi ikki asosiy yunalishda ish olib boradi: imiy tadkikotlar, xususan, asarlarning tarkibiy xom-ashyolarini bilish xamda davlat mikiyosida muzey merosini saklash va konservatsiya kilish.

Luvr muzeyida tashkillashtirilgan va muvaffakiyatli bulib utgan «O'zbekiston voxalarining xazinalari» nomli kurgazma doirasida O'zbekiston Davlat san'ati muzeyi va O'zR FA San'atshunoslik institutlarining restavratorlari mazkur markazning Flora pavilonida bulib, bevosita tamirlash laboratoriyalari bilan yakindan tanishdi. Markaz restavratori Saraga kura bu erda arxeologik ashyolar restavratsiya va konservatsiyasi olib boriladi. Bulimda 6 ta ilmiy xodimlar faoliyat olib boradi: ularning biri Fransiya arxeologiyasi bilan shugullansa, boshkasi Misrga oid muzey ashyolariga ixtisoslashgan. Boshka restavratorlar arxeologik metal, keramika va shisha xamda etnografiya ashyolari bilan ishlaydi. Laboratoriyada kerakli sharoit yaratilgan va zamonaviy jixozlar, asbob-uskunalar bilan taminlangan. Fransiyadagi kup sonli muzeylar va ularda tez-tez utkazilib turiladigan kurgazmalar bu erda restavratorlarga talabning kata ekanligini anglatadi. Bu erda restavratorlar asosan Parij i Lionda joylashgan Meros restavratsiyasi maktabi (Ecole de Condé) talim muassasalari tayerlanadi.

Oliy dargohda bakalavr va magistratura bosqichlari mavjud. Shunga qaramay, Fransiyada kuplab restavratorlar muntazam ish joyiga ega emas. Ularning kupchiligi mustakil restavratorlar sifatida faoliyat kursatadi va maxalliy muzeylar, soxa ilmiy tadkikot muassasalarining buyutmalariga kura shartnoma asosida ma'lum bir restavratsiya loyixasida ishtirok etadi. SHuningdek, deyarli barcha restavratorlar xorijiy loyixalarda xam ishtirok etadi. Jumladan, zbekistonda xam kuplab fransuz restavratorlari kp yillardan buyon turli institutlar va muzeylar bilan xamkorlikda ishlab kelmokda. Ularga misol tarikasida Jeraldin Frayni misol keltirish mumkin.

Jeraldin Fray ancha yillardan buyon Samarkand arxeologiya instituti va Uzbekiston Fanlar akademiyasining Korakalpogiston bulimi bilan xamkorlikda ishlab kelmokda. J. Fray asosan kadimgi va ilk Urta asrlarga OID devoriy suratlar freskalar restavratsiya va konservatsiyasiga ixtisoslashgan. U Luvrdagi Uzbekiston muzey ashyolari kUrgazmasi doirasida bevosida ishtirok etib, kurgazmada ishtirok etgan Afrosieb, Bolaliktepa xamda Akchaxankala devoriy suratlarini preventiv konservatsiyasi, shuningdek, suratlarning montaj, demontaj ishlarini muvaffakiyatli

bajardi. Kurgazma •doirasida bir gurux fransuz restavratlari Uzbekistonning yirik muzeylari va institut tamirlash laboratoriyalarida kurgazmada katnashgan eksponatlarni preventiv konservatsiya va restavratsiya qilish, ekspozitsiyaga tayirlash ishlarida katnashdi. Ularga loy-ganch xaykallar buyicha Anna Ligei, Natali Bruker, Kristin Pariselli, Sharlot Xumines, suyak buyumlar buyicha Delfin Eli-Lefev, kulyozmalar restavratsiyasi buyicha Aksel Delau va Aureliya Streri va boshkalarni misol keltirish mumkin. Albatta, ularga maxalliy mutaxassislar xam yakindan yordam berdi.

Xulosada shuni aytish mumkinki, Fransiyada madaniy meros va muzey ashyolari restavratsiya tizimi yaxshi yulga quyilgan. Uylashimizcha, boshqa sohalar kabi restavratsiyaning rivoji ham uning talabgorligi va iqtisodiy, ijtimoiy va manaviy foyda keltirish bilan chambarchas bog'lik. Chunki, har qanday sn'at asari yoki noyob muzey ashyosining restavratsiyasi uzok vaqtdan tashkari, juda katta mablag'ni talab etadi. Odatda buyurtmachiga esa tamirlangan ob'ektga sarf kilingan xarajatni koplashi kerak. Fransiyada bu borada etarlicha tajiba tuplangan va qar kandy murakkab va katta moliyaviy vositalar jalb qilingan restavratsiya jarayoni uzini oqlagan. Muxtasar qilib aytganda, restavratsiya sohasida Fransiya tajribasini urganish ijobiy samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. <https://www.louvre.fr/en/the-louvre-in-france-and-around-the-world/the-louvre-conservation-centre>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Institut_national_du_patrimoine
3. Nathalie Volle, Béatrice Lauwick et Isabelle Cabillic (dir.), Dictionnaire historique des restaurateurs, Tableaux et œuvres sur papier, Paris, 1750-1950, Paris : éditions du Louvre/Mare et Martin, 2020.
4. <https://www.surfacemag.com/articles/louvre-conservation-center>
5. <https://c2rmf.fr/reglementation-et-code-du-patrimoine>
6. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).
7. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).
8. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.

9. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 68-75.
10. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(26), 335-338.
11. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In *AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1)*. AIP Publishing.
12. Мамаджонов, Р. (2023). “VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).
13. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
14. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 17, 31-33.
15. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Интернаука*, (21-3), 74-75.
16. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Интернаука*, (22-3), 64-66.